

## **BOSMA VA INTERNET NASHRLARIDA SIYOSIY PORTRET: XORIJIY VA MILLIY TAJRIBA**

**Yorqinoy KOMILOVA**

2-bosqich doktorantura talabasi

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Toshkent, O'zbekiston

## **ПОЛИТИЧЕСКИЙ ПОРТРЕТ В ПЕЧАТНЫХ И ИНТЕРНЕТ-ИЗДАНИЯХ: ЗАРУБЕЖНЫЙ И НАЦИОНАЛЬНЫЙ ОПЫТ**

**Ёркиной КОМИЛОВА**

Докторант

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

## **POLITICAL PORTRAIT IN PRINT AND INTERNET PUBLICATIONS: FOREIGN AND NATIONAL EXPERIENCE**

**Yorqinoy KOMILOVA**

2<sup>nd</sup> stage doctoral student

Journalism and Mass Communication University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan [Yorqinoy.Komilova1988@gmail.com](mailto:Yorqinoy.Komilova1988@gmail.com)

UDC (УО'К, УДК): 070

**For citation (iqtibos keltirish uchun,  
для цитирования):**

Komilova Y. Bosma va internet nashrlarida siyosiy portret: xorijiy va milliy tajriba // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 6 (53). — B. 255-265.

<https://doi.org/10.36078/1704097851>

**Received:** October 30, 2023

**Accepted:** December 17, 2023

**Published:** December 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



**Open Access**

**Annotatsiya.** Siyosiy portret tushunchasi, shakllanishi, rivojlanishi, evolyutsiyasini tadqiq etish jarayonida siyosiy yetakchilarning davlat boshqaruvi va xalq o'rtasidagi muloqoti dolzarb sanaladi. Mazkur uzviylikni ta'minlashda OAVning tarixiy, og'zaki va yozma shakllaridan tortib bugungi kunga qadar taraqqiyotida jamiyatga yangilik berilishi muhim hisoblanadi. Axborotning asosiy mohiyatida siyosiy shaxsning farmon, qarorlari aks etib, mamlakat miqyosidagi o'zgarishlar ko'lami orqali siyosiy arbobning portretini tasavvur qilish mumkin. Shu nuqtayi nazardan mazkur maqolada siyosiy portretning iyerarxik bosqichlari, bosma va internet nashrlaridagi talqini tahlil qilingan. O'zbekiston va xorijiy nashrlarda chop etilgan manbalarda muallif "men"i, uslubi, mahorati, fikriy, hissiy yondashuvi o'rganilgan. Siyosiy shaxslarning davlat boshqaruvidagi o'rni, roli, pozitsiyasi, dunyoqarashi, qobiliyati, siyosiy maydondagi "obraz"i, imiji ifodalangan. Materialda muallif tomonidan demokratik, xolislik, haqqoniylik, xalqchilik tamoyillarining yoritilishi, ta'sirchanligi manbalar misolida berilgan. Jurnalistika nazariyasida siyosiy portret janrining dolzarbligi, metodologik usullari qiyosiy tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** siyosiy portret; yetakchi; siyosiy shaxs; obraz; muallif "men"i; uslub; mahorat.

**Аннотация.** В процессе исследования понятия, формирования, развития и эволюции политического портрета актуальным считается общение политических лидеров с народом. Чтобы обеспечить это единство, важно донести до общества информацию о развитии средств массовой информации от исторической устной и письменной формы до наших дней. В основной сути информации отражаются указы и решения

политического деятеля, и можно представить портрет политического деятеля через масштаб изменений на уровне страны. С этой точки зрения в статье анализируются иерархические этапы политического портрета, его интерпретация в печатных и интернет-изданиях. В источниках, опубликованных в узбекских и зарубежных изданиях, изучаются “Я”, стиль, мастерство, интеллектуальный и эмоциональный подход автора. Выражаются место, роль, позиция, мировоззрение, способности, “образ” политических лиц на политическом поле, имидж. В материале автор приводит примеры принципов демократичности, беспристрастности, правдивости, популярности, эффективности источников. В теории журналистики сравнительно исследуются актуальность жанра политического портрета.

**Ключевые слова:** политический портрет; лидер; политическая личность; образ; авторское “Я”; метод; мастерство.

**Abstract.** In the process of researching the concept, formation, development, and evolution of a political portrait, the communication between political leaders and the people is considered relevant. To ensure this unity, it is important to provide news to society in the development of mass media from the historical oral and written forms to the present day. In the main essence of the information, the decrees and decisions of the political figures are reflected, since it makes possible to imagine the portrait of the political figure through the scale of changes at the country level. From this point of view, this article analyzes the hierarchical stages of the political portrait, its interpretation in print and internet publications. In the sources published in Uzbek and foreign publications, the author's “I”, style, skill, intellectual and emotional approach are studied. The place, role, position, worldview, ability, “image” of political persons in the political field are expressed. The author provides examples of democratic, impartiality, truthfulness, popularism principles, and the effectiveness of the sources. In the theory of journalism, the relevance of the political portrait genre and methodological methods are comparatively studied.

**Key words:** political portrait; leader; political person; image; author “I”; method; skill.

**Kirish.** “Jurnalistlarning o‘zlari tomonidan taniqli shaxslarning shaxsiy hayotiga mohirlik bilan uyg‘otadigan qiziqishni qondirish uchun matbuotda portret materiallaridan foydalanish bizning davrimizning yana bir xususiyati bo‘ldi” (9). Taniqli shaxslar – madaniyat, ilm-fan, sport, siyosat kabi yo‘nalishlarda faoliyat yuritir ekan, fikrimizcha, siyosiy shaxslarga oid ma’lumotlar ko‘lami boshqa yo‘nalishlarga nisbatan auditoriyaning katta qismini qiziqtirishi bilan ahamiyatli.

Siyosat — davlat va jamiyatning huquqiy asoslari, fuqarolar hayotining farovonlik darajasi, bevosita yashash imkoniyatlari bilan bog‘liqligi bois siyosatdan uzoq insonni ham jalb qilishi tabiiy holat. D. Rasulova (16), Q. Rafiqov (17), A. Gamov (3), I. Greseva (4) kabi olim, jurnalist, siyosatchilar tomonidan milliy va xorijiy OAV nashrlarida chop etilgan ilmiy ishlarda siyosatchilarning yetakchi sifatidagi imiji, ularning siyosiy muzokaralari, maqsad va vazifalari, pozitsiyasi, siyosiy xatolari, yetakchilarning hayoti va boshqaruvdagi

idroki, mavqei muallif nuqtayi nazari orqali dalillangan holda tahlil qilinadi.

Shu nuqtayi nazardan, “Xalq so‘zi”, “Yangi O‘zbekiston”, “Kun.uz” internet nashrlarida siyosiy shaxslar faoliyatiga doir maqolalar, xususan, “Qalampir.uz”da “Islom Karimov haqida yangi kitob chop etildi” (6)” material Tahririyat nomidan e‘lon qilingan. “Islom Abdug‘aniyevich Karimov — O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti” maqolasi “Yangi O‘zbekiston” gazetasida Luqmon Bo‘rixon qalamiga mansub “Olov tutgan odam” kitobi, unda O‘zbekistonning birinchi prezidenti I.A. Karimovning davlat boshqaruvi, mashaqqatli siyosiy yo‘li xususida so‘z boradi va quyidagi jumlar keltiriladi: “muallif bosh qahramon portretiga talabchan va mas‘uliyatli rahbar sifatida chizgi berib qolmay, shaxs va inson sifatida ham ko‘rsatib bera olgan, uning iztiroblari, dardlari, orzu-istaklari, umidlarini ta‘sirli, ishonarli tasvirlagan” (5). Maqolada kitobning mazmuni haqida qisqacha ma‘lumot beriladi, muallif fikrlaridan iqtiboslar keltiriladi. Ammo, masalaning muhim jihati shundaki, ushbu asarning qiymati, O‘zbekiston davlatining asoschisi, birinchi prezidentning boshqaruv prinsiplari, yetakchi sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlari, I.A. Karimov siyosiy siyosida yetakchilik mahorati, uning mamlakat hayotida tutgan o‘rni, umuman, asarning salmog‘i aks ettirilmaydi. Tahririyatni muallif sifatida qaraydigan bo‘lsak, ushbu maqolada “Yangi O‘zbekiston” gazetasining uslubi, ifodasi namoyon bo‘lmaydi. Milliy OAVda nashr qilingan maqolalarning aksariyat qismida muallif ism-familiyasi keltirilmaydi, material Tahririyat nomidan e‘lon qilinadi. Ushbu jarayonni ikki xil mazmunda talqin qilish mumkin: *birinchidan*, muallifning oshkor qilinmasligi uning xavfsizligini ta‘minlaydi; *ikkinchidan*, buni tahririyatning uslubi sifatida talqin qilish o‘rinli.

Xorijiy nashrlarda siyosiy yetakchilar haqidagi materiallarda muallif nomi bilan talqin qilish qamrovi keng. Masalan, AQSHning “Newsweek” jurnalida muallif T. Kika “Democratic Congressman Calls for Hunter Biden to Be ‘Held Accountable’” maqolasida AQSHning amaldagi prezidentining o‘g‘li bilan bog‘liq siyosiy, huquqiy ma‘lumotlarni havola etadi. Ya‘ni demokrat kongressmen Jim Himes: “Prezident Jo Baydenning to‘ng‘ich o‘g‘li Bayden soliqlar va to‘pponchaga egalik qilish bo‘yicha qonunni buzganligini aytmoqda” (11). Uning ushbu fikrlari AQSh soliq tizimi mutaxassislari tomonidan tasdiqlangan va bu borada sud ishi olib borilayotganligi ma‘lum qilingan. Muallif maqolada ikki qarama-qarshi qutbni qo‘ya oladi, masalan, amaldagi prezident Jo Bayden va sobiq AQSh prezidenti D.Tramp, ular o‘rtasidagi tafovutlar, yutuq va kamchiliklar havola qilinadi. Davlat rahbarining o‘g‘li qonunni buzsa javob berishi, bu borada Jo Baydenga nisbatan D.Trampni oilasi bilan bog‘liq bunday muammolari mavjud emasligi uning yutug‘i sifatida shaxsiy faoliyatini ham ifodalaydi. Aslida, AQSh qonunchiligi bo‘yicha sobiq prezident D.Trampga bir necha ayblovlar qo‘yilgan, biroq isbotlangani yo‘q. Ammo uning oilasi haqida hech qanday “qora dog”lar mavjud emasligi maqolada qiyosiy tahlil qilinadi. Ushbu

fikrlar AQSHning amaldagi prezidenti Jo Baydenni obro'sizlanishiga sabab bo'lishi aniq. Mazkur maqolada muallif T. Kikaning mahorati shundaki, masalaning og'riqli nuqtalariga javobni davlat va jamiyatning mansabdor shaxslari orqali havola qilinishini ta'minlaydi. O'z nuqtayi nazarida, AQSH qonunchiligi oddiy fuqarodan tortib har qanday mansabdor shaxs uchun birdek ishlashini ta'kidlaydi. Shu o'rinda mulohazamizcha, jurnalist prezident va uning oilasi haqida o'z qarashlarini erkin havola qila olayotgan ekan, AQSh huquqiy tizimi OAVning so'z erkinligi, ularni himoyasini ta'minlanishini anglash mumkin.

**Asosiy qism.** Tadqiqot jarayonida ilmiy, tarixiy, badiiy manbalar negizida siyosiy portret evolyutsiyasi, ilmiy qarashlar tadriji shuni ko'rsatdiki, qahramonlar haqidagi ma'lumotlar nafaqat xalqni, balki, siyosiy shaxslarning o'zini ham raqobat maydonida qarama-qarshi qo'yadi:

- manba asosini tashkil etadigan, markaziy-siyosiy portret qahramonlari;

- manbada, markaziy siyosiy portret qahramonlarining atrofida jamlangan siyosiy portretlar, turli obrazlar.

Masalan, siyosiy portret tadriji tadqiq qilingan manbalarda, xususan, Sh.A.Yazdiyning "Zafarnoma" (25, 11), Kaykovusning "Qobusnoma" (10, 13), B.To'xliyevning "O'rxun Yenisey bitiklari" (23), Z.M.Boburning "Boburnoma" (2, 5), Amir Temurning "Temur tuzuklari" (20, 24) larida mavzu doirasida ilmiy xulosalarni olish mumkin.

Shuningdek, professor M. Xudoyqulov tomonidan o'rganilgan "AQSHda "Layf (hayot)", Fransiyada "Nobel Obser vator" (Yangiliklar sharhi), Germaniyada "Shtern", "Fokus", Kanadada "Taym", Rossiyada "Ogonyok" (24, 78) singari nashrlar auditoriyaga ma'lumot berish barobarida, ijtimoiy hayotni aks ettirar ekan, uning negizida siyosiy ahvolning mohiyati mujassam ekanligini tushunish mumkin.

Tarixiy va zamonaviy manbalarda ham an'anaviy uslub, tajriba davom etib, sayqallanib bormoqda. Ya'ni siyosiy shaxslarning portret chizgilari har qanday zamon va makon o'zgarishida ham quyidagicha ifoda asosini saqlab qolmoqda:

- siyosatchining shaxsiy mulohazasi, nutqlari, fikrlari, asarlari orqali uning yetakchilik portretini gavdalanitirishi;

- siyosiy yetakchining qiyofasini muallif tomonidan talqin qilinishi;

- yetakchining salbiy va ijobiy obrazi uning atrofidagi shaxslar munosabati, fikri orqali yoritilishi;

- jamoatchilik, xalq fikri orqali uning shaxsiyati ifodalanishi.

Shu nuqtayi nazardan mushohada qilganda, siyosiy shaxslarga xos bo'lgan uzviylik, boshqaruv mexanizmi, o'tish davri, Yevropa yoki Osiyodagi har bir davlatchilik boshqaruvidagi unsurlari bilan bir-biriga o'xshash umumiy jihatlar mavjud. Masalan, hokimiyat uchun kurash, raqobat, nizolar, davlat boshqaruvida mustaqillik yoki tobelik, vatanparvarlik, mansabparastlik, manfaatparastlik, hokimiyatda sinfiy

bo‘linishlar kabi tajriba asrlar davomida takrorlanadi. Ammo zamonaviy OAVda siyosiy portret, mualliflar pozitsiyasida g‘arb va sharq, xususan, milliy nashrlarimiz va g‘arb nashrlarida yaqqol tafovutlar ko‘rinadi. Ya‘ni, birinchidan, g‘arb nashrlarida demokratik tamoyillar amaliy ifodalanadi, siyosiy yetakchilarning yutuq va kamchiliklari ochiq, oshkora tahlil qilinadi. Masalan, D. Roche (18), J. Biskerton (1), J. Solvin (19), E. Tusker (22), D. Trenin (21) kabi mualliflar maqolalarida siyosiy portret sifatida yetakchilar haqida tanqidiy tahlillar olib borilgan. Shuningdek, qiyosiy o‘rganadigan bo‘lsak, milliy nashrlarimizda yondashuv bir tomonlama aks ettirilmoqda, faqat yutuqlar ifoda etilgandek nazarimizda. Masalan, Z. Jonibekov, I. Avvalboyev, A. Musayev (7) maqolalarida muallif, jurnalist sifatida munosabat bildirilmaydi. Maqola asosan hisobot shaklida talqin qilinadi. Ammo zamonaviy OAVda tarixiy hukmdorlar haqidagi chop etilayotgan maqolalarda juda katta ilmiy asoslar, haqiqatlar, aniqlik bilan tahlil qilinadi. Xususan, milliy nashr “Tafakkur” jurnalida “Firdavs ul-iqbol” saboqlari maqolasida xorazmshohlarning hukmronlik faoliyati, ijodiy, ma‘naviy muhitning yaratilishi borasida ma‘lumotlar mavjud. Maqola muallifi Nusratullo Jumaxo‘ja “Firdavs ul-iqbol” asari tahlili misolida bir qator siyosiy portretlarning namunalarini keltirib, mushohada qiladi. Ya‘ni Shermuhammad Munis Sherg‘ozixon haqida: “Muhammad Amin inoq bag‘oyat donishmand va kordon va maishatdo‘st va komron erdi. Aqlu qayosat durari bila orasta, xush va farosat xulali bila pirosta erdi. Adolatin siyosatig‘a va lutfin qahrg‘a mun‘adam qilib erdi. Haybat va savlati ul g‘oyatda erdikim, har kim oni ko‘rsa, a‘zosig‘a larza tushar erdi... (8, 94)”, — deya namuna keltiradi muallif. Buyuk davlat hukmdorlari haqida ko‘plab risolalar, maqolalarda bu kabi misollarni uchratish mumkin.

Tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, podshohlar hayotligida yozilgan asarlarda o‘sha davr va hukmdorlar boshqaruvi ko‘p hollarda ijobiy ta‘riflangan, aksincha, vafotidan so‘ng bitilgan barcha asarlarda yetakchilar xususiyati ochiq, yaqqol, ko‘zguda ko‘ringan aks singari namoyon qilingan. Bu an‘ana har bir davr boshqaruviga xos xususiyat sifatida ko‘rinadi. Shu nuqtayi nazardan milliy va xorijiy OAV nashrlari yetakchilar faoliyatini nafaqat an‘anaviy, balki, noan‘anaviy tajriba orqali auditoriyaga ta‘sir etishini maxsus usullarda tatbiq etadi. Xususan, Rossiya Federatsiyasining “Vedomosti”, “Izvestiya”, “Komsomolskaya pravda” gazetalarini, AQShning “Newsweek” jurnali va “The Chicago tribune” kabi gazetalarida maxsus “siyosat” rukni mavjud bo‘lib, siyosiy voqea-hodisalarga doir vizual fotosuratlar norasmiy uslubda aks ettiriladi. Ammo Rossiya va AQSh mualliflarining siyosiy voqealarni yoritish uslubida sezilarli farq mavjud. Fikrimizcha, AQSh jurnalistlari yetakchilar haqida oshkora talqin qila oladi, Rossiya matbuotida klassik yondashuv, tanqidiy ruhni yaqqol aks ettirmaslik kuzatiladi. Milliy nashrlarimizda rasmiy uslub ustuvorlik qiladi. Shu nuqtayi nazardan xorijiy nashrlar amaliyotini o‘rganib, mualliflarning yetakchilar haqida materiallar tayyorlashida quyidagicha xulosa qilish mumkin: mavzuning aniq tanlanishi, tematik tahlil qilinishi, yetakchi faoliyatining yo‘nalishiga



urg‘u berilishi, shakl va mazmun birligi, siyosatchining umumiy obrazida ayni yoritilayotgan xususiyatining afzalligi kabi unsurlar kompozitsion qurilish kasb etishi o‘rinli.

Shuningdek, siyosatchilarning shaxsiy, sirli hayoti, ularning mashg‘ulotlariga doir ma‘lumotlar auditoriyani qiziqtirishi bois mazkur jarayonlar “Vedomosti” gazetasida taniqli “...yetakchi siyosatchilar va yirik biznesmenlarning tarjimai hollari taqdim etiladi” (12). Ushbu tajriba ham barcha nashrlar uchun muhim andoza vazifasini o‘taydi, chunki yetakchining shaxsiy obrazi, boshqaruv qiyofasiga ta’sir etishi, bu ikki xususiyat bir-birini to‘ldirishi bilan ahamiyatli sanaladi. Siyosiy portret talqinida portret ocherki unsurlarini aks ettirishda yondashuvdagi yo‘l qo‘yilgan xatoliklar — ba’zida o‘ta bo‘rttirish, ideallashtirish yoki noaniq tasvirlanishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu bois tasvirlangan qahramon millat yetakchisi sifatida namoyon bo‘lmaydi. Mavhumlik obrazning umumiy — har bir shaxs uchun qo‘llanadigan mazmun va shaklni ifodalaydi, zamondosh portretining alohida xususiyatlarini aniq aks etmasligi, nafaqat, bir shaxs obrazi bilan bog‘liq, uning vositasida millat xarakteri, davlatning siyosiy, ijtimoiy konsepsiyasi mohiyat kasb etishi bilan bog‘liq masala. Ushbu umumiylik hozirga qadar ayrim nashrlarda, mualliflar tomonidan davom ettirilmoqda. Masalan, milliy davlat nashrlarida yetakchining ichki potensialini ochib bera oladigan maqolalar juda kam. Siyosiy tizimda yetakchi obrazining aniq talqin qilinishida siyosiy, psixologik elementlardan foydalanish samaralidir.

Ya’ni “Siyosiy portret janrida asosan psixologik portret, haqiqiy shaxslarning harakatlari va obrazlari aks ettiriladi. Siyosiy portretning boshqa janrlardan farqi shundaki, unda publitsistik va badiiy mahorat teng bo‘lishi kerak” (13). Davlatning siyosiy himoyasi, dunyo xaritasida mamlakatning turli kategoriyalar bilan darajalanishi, siyosiy kurashlar, davlatlar manfaati to‘qnashuvda tutgan o‘rni yetakchi mavqei bilan belgilanadi. Shuningdek, shaxsning psixologik xususiyatlarini ochib berish, bunda asliy va shakllangan obrazni tavsiflay olish muallif mahoratidan darak beradi. Siyosiy portret — siyosiy shaxslar kelajagi uchun juda katta imkoniyat “maydon”i yoki “chegara” hosil qilishi mumkin. Siyosiy shaxslarni milliy va xorijiy nashrlardagi talqini orqali quyidagicha tasniflash o‘rinli:

- birinchidan, siyosiy maqomga ega bo‘lgan shaxslarning hammasi ham yetakchi bo‘lavermaydi;
- ikkinchidan, yetakchi — siyosatchi sifatida tan olinmasligi ham mumkin;
- uchinchidan, siyosiy shaxsga hokimiyat vakillari va xalqning munosabati, qabul qilishi turlicha aks etishi kabi masalalar amaliy jarayonlarda namoyon bo‘ladi.

OAV vositalaridagi har bir ma‘lumot, siyosiy shaxslarning jarangdor ism-familiyasidan tortib, ularning noyob xarakteri, qiziqishlari, siyosatdagi keskin “burilish”lari, qarorlar qabul qilishi va buni keng muhokama qilinishi ular siyosiy portretini ommalashishi,

muhokama markazida bo'lishiga zamin hozirlaydi. Zamonaviy media landshaftida internetning tezkorligi internet nashrlarining siyosiy shaxslar haqidagi ma'lumotlarni auditoriyaga yetkazishda va munosabat bildirishda izchil taraqqiyotga erishmoqda. Ammo masalaning muhimligi, tarixga nazar tashlasak, hech bir texnik imkoniyatlar mavjud bo'lmagan tarixiy bosqichlarda siyosiy shaxslarning ijobiy, salbiy faoliyatidan xalq boxabar bo'lgan. Buni yetkazishda muhim vositalar matbuot, ijodkorlar tomonidan yozilgan asarlardir. Ya'ni zamonaviy rivojlanish bilan barobar siyosiy jurnalistlar, mualliflar malakasiga doimiy ehtiyoj tug'iladi, ilmiy mulohazalarga asos sifatida qaraladi. Masalan, xorijiy miqyosda taniqli rus yozuvchilari L. N. Tolstoy, I. Turgenov, V. Korolenko, M. Gorkiy (15, 255) lar portret ocherkida salmoqli ijod qilgan. Mazkur asarlar badiiy-publitsistik janrda bo'lsa-da, ularning mohiyatida davr ruhiyati, siyosiy holati anglashilib turadi.

Masalan, siyosiy portret, uning yaqqol ifodasi yozuvchi, shoir, jurnalist, publitsist A.Qodiriyning nafaqat asarlari, balki tanqidiy maqolalarida juda katta burilish sifatida yoritilib, 1926-yilda "Mushtum" jurnalida "Yig'indi gaplar" maqolasida siyosiy boshqaruv jarayoni, hokimiyat yetakchilari tanqid qilingani bois jazolangan. Siyosiy portret namunalari A. Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" kitoblarida ham uchramiz. Biz Anvar obrazini faqatgina oshiq obrazida tasavvur etamiz. Ammo u o'z zamonasining amaldoridir. Uning amali va atrofdagilar bilan muloqotida XX asr voqealarini, xonlik davrining zug'umlari, xonning siyosiy portretini his eta olamiz. Masalan, "Xudoyorxon'ga 1283-nchi yilda uchunchi martaba taxtka chiqish nasib bo'ldi. Uning oxirg'i saltanati xonliq istibdodining achchiq zulm va ta'addillarini jonso'z qora sahifalarini tashkil etadir...zulm tig'ini kambag'allar qoni bilan sarbast bo'yag'an so'ngg'i davridir" (14) — deb keltiriladi asarda. Mazkur satrlar orqali Qo'qon xonligining tanazzuli, Qo'qon xoni Xudoyorxonning zulmkorligi, uning siyosiy boshqaruvi, martabasi, el-ulusning unga bo'lgan nafrati, axloqiy jihatdan ham ayollar va bolalar, kambag'al xalqqa ayovsiz tazyiqi, xonlik tarixida eng ko'p kanizlarga ega bo'lgan xon sifatida siyosiy qiyofasi muhrlangan. Uning siyosiy portretini tasavvur qilish uchun kitobni "Zulm o'chog'i" sarlavhali qismini o'qish, tahlil qilish o'rinli. Jurnalistik material sifatida bu manbani eng ishonchli, ham badiiy-publitsistik jihatdan, ham matbuotning sara namunasi deya baholash mumkin. Kitobdagi "Haram", "Qirq qizlar", "Xon ko'ngil ochmoqchi" sarlavhali ruknlar xonning siyosiy portretiga yanada baho berishda muhim manba sanaladi. Shuningdek, A.Qodiriy "O'tkan kunlar" asarida Otabekning padari buzrukvori Yusufbek Hoji tomonidan bitilgan maktublarda Toshkent hokimligining zaif ahvoli, qonxo'r Azizbekni uzoqni ko'ra olmasligi, Qo'qon xonligi bilan nizolari, siyosatchi sifatida kamolotining pastligi, uning hud-behud iddaolari, siyosiy nizolari oqibatida faqatgina oddiy xalq qiynalayotgani, yana xudbinlik bilan shuncha azoblangan elni urush o'chog'iga undayotgani, yaqinlaridan ayrilgan millatni faqat azob chekishga majbur qilayotgani singari fikrlar mohiyatini anglash

mumkin. Manbada maktublar orqali hukmdorlarning siyosiy obrazi, ularning maqsadsiz boshqaruvi salbiy tasvirlanadi. Mazkur asoslar orqali siyosiy portretni ifodalash vositalari, ko‘lami, qamrovi namoyon bo‘ladi.

**Xulosa.** Bosma va internet nashrlarida siyosiy portret talqini, O‘zbekiston va xorijiy tajriba, mualliflar yondashuvi, mahorati yuzasidan quyidagicha xulosa qilish mumkin:

1. Siyosiy portret evolyutsiyasida siyosiy yetakchilar faoliyatini yoritishda mualliflarning maqsadi, vazifalari auditoriyaga ma‘lumot berish, siyosatchining davlat va xalq o‘rtasidagi kommunikatsiya aloqalarini o‘rnatishdan iboratligi tadqiq etildi.

2. Siyosiy portret yoritilishida mualliflar yondashuvi va mahorati 3 ta guruhda shakllangan: matnda muallifning ismi, familiyasining ochiq berilishi va tahririyat tomonidan materialni yoritilishi hamda siyosiy shaxsning o‘zi muallif sifatida namoyon bo‘lishi singari ifodalar tahlil qilindi.

3. Portret janrining jurnalistika nazariyasidagi o‘rni, xususan, siyosiy portret taraqqiyotida jurnalistik talqin, iyerarxik rivojlanish, matnda muallifning pozitsiyasi muhimligi materiallar misolida o‘rganildi.

4. Manbalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, material markazida asosiy siyosiy portret, shuningdek, yetakchi hayoti va faoliyati bilan bog‘liq siyosiy shaxslarning qiyofasiga ham tavsif berilishi, buning asosida asarning salmog‘i, siyosiy shaxslar haqidagi ma‘lumotlar bilan to‘yinganligi manbalar misolida asoslandi.

5. Siyosiy qahramonlarning talqinida — fikr, xarakter, dunyoqarash muhim vosita sanaladi. Siyosiy shaxs xarakteri, uning boshqaruvdagi hukmdor sifatida pozitsiyasi, aniq fikri — jamoatchilikni, xususan OAVni xulosa qilishida asos hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bickerton J. Battle for Crab Island as Florida Locals Rebel Against Biden Intervention. — URL: <https://www.newsweek.com/battle-crab-island-florida-locals-rebel-against-biden-intervention-1817587>. (мурожаат сана: 05.05.2023).

2. Бобур З.М. Бобурнома. — Т.: Юлдузча, 1989. — 80 б.

3. Гамов А. “Противник везде остановлен и отброшен”: Что сказал Владимир Путин о потерях ВСУ и возможности прекращения огня — URL: <https://www.kp.ru/daily/27535.5/4801047/> (мурожаат сана: 03.05.2023).

4. Гресева И., Цуланов М. Путин и лидеры африканских стран приняли итоговую декларацию саммита. — URL: <https://www.vedomosti.ru/politics/news/2023/07/28/987521-putin-i-lideri-afrikanskih-prinyali-deklaratsiyu>. — 28.08.2023/21:02. (мурожаат сана: 02.05.2023).

5. Ислом Абдуғаниевич Каримов — Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти. — URL: <https://yuz.uz/news/islom-abduganievich-karimov--ozbekiston-respublikasining-birinchi-prezidenti>. (мурожаат сана: 07.05.2023).



6. Ислом Каримов ҳақида янги китоб чоп этилди — URL: <https://qalampir.uz/news/islom-karimov-%D2%B3ak-ida-yangi-kitob-chop-etildi-7599> (мурожаат сана: 04.05.2023).
7. Жонибеков З., Сулаймонов М., Аввалбоев И. Фарғона аҳли ҳар бир ташаббус бўйича аниқ натижаларни кутмоқда // Халқ сўзи. — 28.07.2023. — № 154 (8497) — URL: [file:///C:/Users/Lenovo/Downloads/Халқ%20so'zi\\_%20gazetasi-154-2023-07-28.pdf](file:///C:/Users/Lenovo/Downloads/Халқ%20so'zi_%20gazetasi-154-2023-07-28.pdf) (мурожаат сана: 02.05.2023).
8. Жумахўжа Н. Фирдавс ул-икбол сабоқлари // Тафаккур. — 2010. — № 3. — Б. 94.
9. Зеленина Е. Портрет героя: ценностно-смысловой и творческий аспекты. Текст научной работы на тему Средства массовой информации и массовые коммуникации — URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/portret-geroya-tsennostno-smyslovye-i-tvorcheskie-aspekty>. — 2014. — С.43. (мурожаат сана: 06.05.2023).
10. Кайковус. Қобуснома. Нашрга тайёрловчилар: С. Долимов., У. Долимов. — Т.: Истиқлол, 1994. — 173 б.
11. Kika T. Democratic Congressman Calls for Hunter Biden to Be 'Held Accountable' — URL: <https://www.newsweek.com/democratic-congressman-calls-hunter-biden-held-accountable-1816225>. (мурожаат сана: 04.05.2023).
12. Портрет. Жанрнинг моҳияти — URL: [https://studme.org/129634/zhurnalistika/portret\\_ocherk](https://studme.org/129634/zhurnalistika/portret_ocherk). (мурожаат сана: 08.05.2023).
13. Портретная журналистика. Виды и технологии создания изображений. — URL: <https://www.history-journal.ru/index.php.request-full&id-67>. (мурожаат сана: 02.05.2023).
14. Қодирий А. Мехробдан чаён. — Т.: Шарқ, 2004. — 288 б.
15. Қозоқбоев Т., Худойқулов М. Журналистикага кириш. — Т.: Иқтисод-молия, 2018. — 255 б.
16. Расулова Д. Хорижий ОАВлар Шавкат Мирзиёев ҳақида қатор мақолалар чоп этди. — URL: <https://archive.qalampir.uz/news/horijiy-oavlar-shavkat-mirziyoev-xaqida-qator-maqolalar-chop-etdi-4960>. — 06.12.2016/11:52. (мурожаат сана: 03.05.2023).
17. Рафиқов Қ. Шавкат Мирзиёев феномени. — URL: [https://uza.uz/uz/posts/shavkat-mirziyoev-fenomeni\\_294067](https://uza.uz/uz/posts/shavkat-mirziyoev-fenomeni_294067). (мурожаат сана: 06.05.2023).
18. Roche D. Joe Biden's Approval Rating Is Becoming a 'Major Concern' for Democrats. — URL: <https://www.newsweek.com/joe-biden-approval-rating-major-concern-democrats-1817508>. (мурожаат сана: 05.05.2023).
19. Colvin J., Should Donald Trump go to jail? The 2024 election could become a referendum on that question. — URL: <https://www.chicagotribune.com/politics/ct-aud-nw-election-2024-trump-20230802-24hrr5fbg5am3goysb7mt2e2ua-story.html>. (мурожаат сана: 04.05.2023).
20. Темур А. Темур тузуклари. — Т.: Ижод-пресс, 2019. — 67 б.

21. Тренин Д. 20 лет Владимира Путина: трансформация внешней политики. — URL: <https://www.vedomosti.ru/opinion/articles/2019/08/14/808755-20-let-putina>. (мурожаат сана: 06.05.2023).
22. Tucker E., Kunzelman M. Donald Trump charged by Justice Department on 2020 election interference. — URL: <https://www.chicagotribune.com/nation-world/ct-aud-nw-trump-indictment-20230801-hn5bmg2pczeoneowkvnzevxlmy-story.html>. (мурожаат сана: 05.05.2023).
23. Тўхлиев Б., Каримов Б., Усмонова К. Ўрхун-Энасой обидалари ҳақида. — URL: <https://xs.uz/uzkr/post/orkhun-enasoj-obidalari-haqida>. (мурожаат сана: 07.05.2023).
24. Худойқулов М. Журналистика ва публицистика. — Т.: Университет, 2008. — 236 б.
25. Яздий Ш.А. Зафарнома. — Т.: Шарқ, 1997. — 384 б.

### References

1. Bickerton J. Battle for Crab Island as Florida Locals Rebel Against Biden Intervention, available at: <https://www.newsweek.com/battle-crab-island-florida-locals-rebel-against-biden-intervention-1817587> (date of application: 05.05.2023)
2. Bobur Z.M. *Boburnoma* (Boburnoma), Tashkent: Yulduzcha, 1989, 80 p.
3. Gamov A., available at: <https://www.kp.ru/daily/27535.5/4801047/> (date of application: 03.05.2023)
4. Greseva I., Tsulanov M., available at: <https://www.vedomosti.ru/politics/news/2023/07/28/987521-putin-i-lideri-afrikanskih-prinyali-deklaratsiyu.-28.08.2023/21:02>. (date of application: 02.05.2023).
5. *Islom Abduganievich Karimov – Uzbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti* (Islam Abduganievich Karimov - First President of the Republic of Uzbekistan), available at: <https://yuz.uz/news/islom-abduganievich-karimov--ozbekiston-respublikasining-birinchi-prezidenti>. (date of application: 07.05.2023).
6. *Islom Karimov ҳақида yangi kitob chop etildi* (A new book about Islam Karimov was published), available at: <https://qalampir.uz/news/islom-karimov-%D2%B3ak-ida-yangi-kitob-chop-etildi-7599>. (date of application: 04.05.2023).
7. Zhonibekov Z., Sulaimonov M., Avvalboev I. F. *Khalq suzi*, 28.07.2023, No 154 (8497) (date of application: 02.05.2023).
8. Jumaxo'ja N. *Tafakkur*, 2010, No.3, P.94.
9. Zelenina E. , available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/portret-geroya-tsennostno-smyslovyie-i-tvorcheskie-aspekty> (date of application: 06.05.2023).
10. Kaykovus. *Qobusnoma*, Tashkent: Istiqlol, 1994, 173 p.
11. Kika T. Democratic Congressman Calls for Hunter Biden to Be 'Held Accountable', available at:

- <https://www.newsweek.com/democratic-congressman-calls-hunter-biden-held-accountable-1816225>. (date of application: 04.05.2023).
12. *Portret. Zhanrning moʻxiyati* (Portrait. The essence of zhanr), available at: [https://studme.org/129634/zhurnalistika/portret\\_ocherk](https://studme.org/129634/zhurnalistika/portret_ocherk) (date of application: 08.05.2023).
13. *Portretnaya zhurnalistika. Vidy i tekhnologii sozdaniya izobrazhenii* (Portrait journalism. Types and technologies of image creation), available at: <https://www.history-journal.ru/index.php.request-full&id-67>. (date of application: 02.05.2023).
14. Qodiriy A. *Mehrobdan chayon* (Chaen of mechrob), Tashkent: Sharq, 2004, 288 p.
15. Qozoqboyev T., Xudoyqulov M. *Jurnalistikaga kirish* (Introduction to journalism), Tashkent: Iqtisod-moliya, 2018, 255 p.
16. Rasulova D., available at: <https://archive.qalampir.uz/news/horijiy-oavlar-shavkat-mirziyoev-xaqida-qator-maqolalar-chop-etdi-4960.-06.12.2016/11:52>. (date of application: 03.05.2023).
17. Rafikov K., available at: [https://uza.uz/uz/posts/shavkat-mirziyoev-fenomeni\\_294067](https://uza.uz/uz/posts/shavkat-mirziyoev-fenomeni_294067). (date of application: 06.05.2023).
18. Roche D. Joe Biden's Approval Rating Is Becoming a 'Major Concern' for Democrats, available at: <https://www.newsweek.com/joe-biden-approval-rating-major-concern-democrats-1817508>. (date of application: 05.05.2023).
19. Colvin J., Should Donald Trump go to jail? The 2024 election could become a referendum on that question, available at: <https://www.chicagotribune.com/politics/ct-aud-nw-election-2024-trump-20230802-24hrr5fbg5am3goysb7mt2e2ua-story.html>. (date of application: 04.05.2023).
20. Temur A. *Temur tuzuklari* (Temur powder), Taskent: Ijod-press, 2019, 67 p.
21. Trenin D., available at: <https://www.vedomosti.ru/opinion/articles/2019/08/14/808755-20-let-putina>. (date of application: 06.05.2023).
22. Tucker E., Kunzelman M. Donald Trump charged by Justice Department on 2020 election interference, available at: <https://www.chicagotribune.com/nation-world/ct-aud-nw-trump-indictment-20230801-hn5bmg2pczeoneowkvnzevxlmy-story.html>. (date of application: 05.05.2023).
23. Tʻykhliev B., Karimov B., Usmonova K., available at: <https://xs.uz/uzkr/post/orkhun-enasoj-obidalari-haqida>. (date of application: 07.05.2023).
24. Xudoyqulov M. *Jurnalistika va publitsistika* (Journalism and publicism) Tashkent: Universitet, 2008, 236 p.
25. Yazdiy Sh.A. *Zafarnoma*, Tashkent: Sharq, 1997, 384 p.